



## AUTSORSING - BIZNESNI ZAMONAVIY SHAKLI VA O`ZBEKISTONDA UNI TASHKIL ETISHNING AFZALLIKLARI

**Tog`ayev Abdisator Maxatovich**

*Uzun pedagogika kolleji o`quv ishlar bo`yicha director o`rinbosari*

**Isayev Atabek Djo`raboyevich**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** *Fan – texnika taraqqiy etgan sari biznesni yuritish ham transformatsiyaga duch keladi. Ayniqsa hozirda biznesning xizmat ko`rsatish sohasi yuqori sur`atlar bilan mamlakatimizda rivojlanmoqda. Xususan, outsorsing, biznesning nisbatan yangi shakli O`zbekistonga ham kirib kelmoqda. Ushbu maqolada outsorsing biznesni zamonaviy shakli hamda uni O`zbekistonda joriy etishda iqtisodiy va huquqiy asoslari keltirilib, bunda byudjet tashilotlariga outsorsingni joriy qilishda qanday afzalliklari va kamchiliklar borligi atroflicha yo`ritilgan.*

**Kalit so`zlar:** *Biznes shakllari, xizmat ko`rsatish, outsorsing, tashqi pudrat, byudjet tashki-loti, resurslarni tejash.*

Butun dunyoda jadal fan-texnika taraqqiyoti rivojlanishining zamonaviy sharoitida innovatsiyalarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda, ularsiz jamiyatda keyingi taraqqiyotni amalga oshirish mumkin emas edi. Zamonaviy biznes dinamik va yetarli darajada moslashuvchanlikni talab qiladi. Biznesning rivojlanish darajasi va uning sur'atlari xizmat ko'rsatuvchi subyektlarga mamlakatimizda bugungi kunda talab qilinayotgan yangi tartiblarni ishlab chiqish va moslashtirish zarurligini taqozo etmoqda. Shuning uchun ham korxonani tashkil etishning eski shakllari o`rnini biznesni tashkil etishning yangi va moslashuvchan shakllari egallamoqda.

Hozirgi vaqtga kelib outsorsing raqamli iqtisodiyot sharoitida biznesni tashkil etishning zamonaviy shakllaridan biriga aylandi deb aytsak mubolag`a bo`lmaydi.

G'arb mamlakatlarida, outsorsing bir necha o'n yillar davomida muvaffaqiyatli qo'llanib kelinmoqda va biznesning raqobatbardoshligi o'sishi va iqtisodiyotni rivojlanishining omillaridan biri hisoblanadi.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, jahon bozorida outsorsing xizmatlarini iste'mol qilish bo'yicha bozor ulushini hisobga olgan holda AQSh - 36%, G'arbiy Yevropa - 29% va Yaponiya - 13% yetakchi hisoblanadi. Har qanday funksiya yoki biznes jarayonlarini outsorsingga topshirgan AQSH kompaniyalarining ulushi 2020-yilda 86% ga nisbatan 2019-yildagi 52% ni tashkil etdi. AQSh outsorsing bozorida sotuvlar 2020-yilda 3 baravardan ortiq oshdi.

Autsorsing (inglizcha «outsourcing» – tashqi pudrat) – bu tashkilot tomonidan ishlab chiqarish-tadbirkorlik faoliyatining muayyan turlari yoki funksiyalarini



shartnoma asosida kerakli sohada faoliyat yuritayotgan boshqa kompaniyaga o'tka-zilishiga aytiladi.

O'zbekistonda outsorsing biznesning nisbatan yangi shakli hisoblansa mamlakatimizda bu biznesni rivojlanishi uchun dastlabki huquqiy hujjatlar hukumat tomonidan qabul qilingan. Outsorsing texnologiyasining joriy etilishi nafaqat davr talabi, balki bir qator normativ hujjatlarda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentabrdagi PF-5185-son «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2017 yil 29 noyabrdagi PF-5264-son «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi Farmonlarida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi PQ-3450-son «Xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida»gi Qarorida ham tartibga solingan. Bundan tashqari «O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tuzilmasidagi tashkilotlarda outsorsing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida» Hukumat Qarorida (16-son, 10.01.2020-y.) mamlakatimizda outsorsing xizmatini yo'lga qo'yish o'z aksini topgan.

Biznesda outsorsingni qo'llash korxonalar uchun uning xarajatlari, daromadlari va tavakkalchiliklarini boshqarish nuqtai nazaridan, innovatsion boshqaruv yondashuvidir.

Outsorsing mamlakatimizning xizmat ko'rsatish sohasini yangi rivojlanish bosqichiga yuksalishiga sabab bo'ladi. Mamlakatimizda outsorsingni quyidagi sohalarda tashkil qilinishi e'tirof etishimiz mumkin:

- buxgalteriya hisobi;
- huquq;
- kadrlar;
- ofislarni tozalash;
- transport;
- axborot texnologiya;
- logistika;
- ko'chmas mulk obyektlaridan foydalanish;
- umumiy ovqatlanish va boshqalar.


Masalan, outsorsing asosida tibbiyot muassasalarida yoki harbiy qismlarda ovqatlarni tayyorlash outsorsing kompaniyalarga shartnoma asosida berilishi yoki biznes subyektlarning buxgalteriyasini hamda huquqiy tomonlarini outsorsing firmalarga berilishi ko'zda tutiladi.

Hozirgi davrda har bir byudjet tashkiloti byudjet mablag'larini iqtisod qilishga qaratilgan. Oxirgi yillarda davlat byudjetimiz taqchil holatda ekanligi hech kimga sir emas. Bunday sharoitida davlat byudjetiga ortiqcha yuklamani kamaytirish uchun byudjet muassasalarning xarajatlarini moliyalashtirishda ularni qisqartirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



Shunday ekan byudjet tashkilotlari ayrim xizmat turlarini outsorsing tizimiga o`tkazish maqsadga muvofiq bo`ladi. Korxonaning ichki xonalarini va atrofdagi hududlarini tozalash, binolarga texnik xizmat ko`rsatish va ularni qo`riqlash, transport va umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish yoki marketing va buxgalteriya hisobi ishlarini olib borish shular jumlasidandir.

Byudjet korxonalarida outsorsing xizmatidan foydalanish ushbu korxonalariga nima beradi?



### 1 – rasm. Outsorsingni ijobiy tomonlari

Resurslarning tejalihi, ya`ni ish haqi hisoblanmaydi, davlat maqsadli jamg`armalariga ajratmalar qilinmaydi, kasallik varaqalari bo`yicha to`lovlar yo`q, mukofotlar va moddiy yordam pullari to`lanmaydi.

Ish joyining tejalihsiga olib keladi. Masalan, qo`shimcha maydonlar ajratish, orgtexnika, kanselyariya mollari, ma`lumotnoma - huquqiy tizimlar, dasturiy ta`minotlar sotib olinmaydi.

Uzluksiz va e`tirozsiz ishlar tizimiga ega bo`ladi. Shtatdagi xodimning ta`til-dan yoki kasallik davridan chiqishni kutib o`tirish talab etilmaydi.



Vaqt tejaladi, ya`ni kerakli malakali mutaxassislarni topib tanlab olish va moslashtirish uchun korxonaga vaqt talab etiladi. Outsorsingda ishlar darhol boshlab yuboriladi.

Autsorsorsing firmalari tomonidan ish sifati kafolatlanadi. Tashkilot - autsorser, odatda, o`z shtatida kerakli vazifalarni bajarish tajribasiga ega bo`lgan yuqori malakali mutaxassislarga ega bo`ladi.

Biznesning outsorsing shakli afzalliklar bilan bir qatorda kamchiliklariga ham ega, bularga, axborot xavfsizligini pasayishi, firmaning faoliyati boshqa korxonalariga bog`liqligi, korxonani boshqarish izdan chiqib ketishi kabilarni aytib o`tish lozim.

Lekin jahon tajribasi shuni isbotladiki biznesda outsorsing shaklidan foydalanish uning afzalliklari kamchiliklariga nisbatan ustun ekanligini ko`rsatib bermoqda.

Xulosa o`rnida aytish joizki, O`zbekistonda biznesni rivojlantirishda yangi shaklidan foydalanish, milliy iqtisodiyotimizda yangi ish o`rinlarni barpo etish, korxonalar xarajatlarining kamayishi va ularning raqobatbardoshligini oshishiga, davlat byudjeti xarajatlarining qisqarishiga olib keladi. Mamlakatimizda outsorsing korxonalarini tashkil etishda barcha huquqiy va iqtisodiy imkoniyatlar mavjud. Biznesning bunday shaklini joriy qilish va uni rivojlantirish milliy iqtisodiyotimizning taraqqiyotida muhim omil sifatida namoyon bo`ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Po`latov M.E., Xolmamatov D.H., Yahyoxonov N.B. Xizmatlar marketing. O`quv qo`llanma. Samarqand. Fan bulog`i nashryoti, 2021 y., - 445 bet.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentabrdagi PF-5185-son «O`zbekiston Respublikasida ma`muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida»gi Farmoni.
3. 2017 yil 29 noyabrdagi PF-5264-son «O`zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to`g`risida»gi Farmoni.
4. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrdagi PQ-3450-son «Xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirish bo`yicha qo`shimcha shart-sharoitlarni yaratish to`g`risida»gi Qarori.
5. «O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi tuzilmasidagi tashkilotlarda outsorsing xizmatlari ko`rsatish tartibi to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida» Hukumat Qarorida (16-son, 10.01.2020-y.).
6. <https://www.buhgalteriya.uz/>